

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

NURULLAYEV XASAN TO‘XTAYEVICH

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARINING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Nurullayev Xasan To‘xtayevich

Nemis va o‘zbek tillari somatik frazeologizmlarining
lingvomadaniy xususiyatlari3

Нуруллаев Хасан Тухтаевич

Лингвокультурологические особенности соматических
фразеологизмов немецкого и узбекского языков29

Khasan Tukhtaevich Nurullaev

Linguocultural Features of Somatic Phraseological Units of the
German and Uzbek Languages59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....64

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

NURULLAYEV XASAN TO‘XTAYEVICH

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARINING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Fil992 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.uzswlu.uz>) hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zohid Yaqubjanovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Anorqulov Sanjar Iskandarovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi)

G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tarkibida inson tana a'zolari nomi ishtirok etgan frazeologizmlar maxsus o'rganilmoqda, zero ular inson bilan bevosita bog'liq va muayyan madaniy belgilarga egadir. Somatik frazeologizmlar, odatda, emotsional va milliy-madaniy o'ziga xosliklarni, shuningdek, kishilarning turli harakatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi va o'zida verbal muloqotning an'anaviy simvolikasi hamda keng tarqalgan milliy urf-odatlar, marosimlarni mujassam etadi. Keltirilgan holatlar tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi, chunki madaniyatlararo muloqotlar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda til birliklari, xususan, frazeologizmlar tarkibidagi madaniy belgilarni aniqlash zarurati yuzaga kelgan.

Dunyo tilshunosligida somatik frazeologizmlarni chog'ishtirma aspektida o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar salmog'i ortib bormoqda. Ularda frazeologizmlarning semantik-struktur, milliy-madaniy, antropotsentrik hamda konseptual tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, frazeologik birliklar har bir xalqning an'analari, turmush tarzi, e'tiqodi, tarixi bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni ekspressiv va obrazli-hissiy shaklda aks ettiradi.

Mamlakatimizda tilimizning obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlar tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash kabi sohalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda o'zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish vazifalari belgilangan¹. Frazeologik birliklarni nemis va o'zbek tillari doirasida tadqiq etish, mazkur tillardagi frazeologizmlarni leksik, semantik, morfologik-sintaktik jihatdan o'rganish, lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra semantik-tematik guruhlariga ajratib tahlil qilish ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi², 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi³, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda

¹ Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida № PF-6084 20.10.2020

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017-y., 6-son, 70-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴ farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁵ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁶ qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarga har doim tadqiqot obykti sifatida e‘tibor qaratilgan. Bu borada X.Visseman, A.Rotkegel, U.Fiks, K.Daniels, K.Pils, V.Flaysheer, H.Burger, K.Palm, A.V.Kunin, rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, I.I.Chernisheva kabi tilshunos olimlarning frazeologiya sohasidagi izlanishlari salmoqli ahamiyat kasb etadi⁷.

O‘zbek frazeologiyasining o‘rganilish tarixi Y.D.Polivanov, Sh. U. Rahmatullayev, Y. D. Pinxasov, A. Sh. Shomaqsudov, M. Husainov, A. M. Bushuy, M. E. Umarxo‘jayev, B. Yo‘ldoshev, A. E. Mamatov kabi olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq⁸.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 06/20/6084/1398-son.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 07/21/5117/0472-son.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 09/21/312/0483-son.

⁷ Wissemann H. Das Wortgrupplem und seine lexikographische Erfassung. In: indogermanische Forschungen 66. -H.3. -Berlin: W. de Gruyter, 1961. - S. 225-258; Rothkegel A. Feste Syntagmen. Grundlagen, Strukturbeschreibung und automatische Analyse. -Tübingen, 1973; Fix U. Zum Verhältnis von Syntax und Semantik im Wortgrupplem. In: Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur. -Halle, 1974; Daniels K. Neue Aspekte zum Thema Phraseologie in der gegenwärtigen Sprachforschung. In: Muttersprache 86/1976. - S.257-293, 89/1979. -S.71-96, 93/1983 -S.142-170, 95-1984-1985. -S.49-68. -S.151-173; Pilz K. Phraseologie. Redensartenforschung. - Stuttgart: Metzler, 1981. -147 S; Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. - Leipzig, 1982, 2. Aufl. -Tuebingen, 1997; Burger H., Buhofer A., Sialm A. Handbuch der Phraseologie. Berlin, New York, 1982; Palm C. Phraseologie. Eine Einführung. Zweite Auflage. -Tübingen, 1997; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва, 1977. - С. 140-161; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. -Ленинград, 1963; Cernyseva I.I. Strukturtypologische Phraseologieforschung in der sowjetischen Germanistik (Überblick und Ausblick). In: Europhras 88. -Strasbourg: Universite des Sciences Humaines, 1989. -S. 43-49; Кунин А.В. Английская фразеология: теоретический курс. -М.: Высшая школа, 1970.

⁸ Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедов. -Москва: Издательство Юрайт, 2019. -233 с.; Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. -М.: 1952. -16 с.; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимджана. Автореф. дис. канд. филол. наук. -Ташкент, 1953. -19 с.; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Мукими (лексика и фразеология). Автореф. дис.

Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar F.Vakk, K. Faro, K. Lund, K. Gitterl, G. Kempke, H. Xolsinger, R. Pinel Lopes, S. Garsiya, E. Toledo, A. Reyxshteyn, J. Veng, Z. Klimaszveska, P. Braun va D. Kralmanning tadqiqotlarida qiyosiy o'rganilgan⁹.

Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda somatik frazeologizmlar A.Isayev, Sh. R. Usmonova, Sh. O. Nazirova, H. Z. Alimova, U. M. Rashidova, X. X. Xomidov¹⁰, nemis va o'zbek tillari doirasida frazeologizmlar M. E. Umarxo'jayev, Sh. S. Imyaminova, A. A. Yaxshiyev, jumladan, somatik

канд. филол. наук. –Ташкент, 1956. -18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Самарканд, 1959. -18 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. –Самарканд: СамГУ, 1976. –Вып. IV. –300 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. –Самарканд: СамГУ, 1979. –Вып. V. –245 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель по фразеологии: Основные вопросы теории фразеологии. –Самарканд: СамГУ, 1987. –Вып. 6. –236 с.; Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati – Toshkent, 1992; Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеологии. -Ташкент, 1977.- 103 с.; Umarxo'jayev M. Chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari. –ADPU, 2014; Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok...dis.: 10.02.02. O'zb.FA Tilshunoslik instituti, –T., 1991, –B. 270; Mamatov A.E. Frazеologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. –Toshkent, 2018, –B.100; Mamatov A.E. Frazеologik birliklarning semantik- tematik va uslubiy tahlili. -T.: «Navro'z» nashriyoti, 2020, -B. 136; Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand: SamDUnashri, 2007. –108 b.

⁹ Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. –Таллин, 1964. –22 с.; Faro K. Somatismen als Problem der dänischen und deutschen Lexikographie. In: Morgensen J. E., Gottlieb H., Zettersten A. Symposium on Lexicography Maz 4-6.2000 at the University of Copenhagen. –Tübingen, 2002. –S. 107-121; Lundh K. Äquivalente Somatismen der deutschen und Schwedischen – wie soll das kontrastive Modell aussehen? 1994. –S.163-173; Gitterle C. Somatismen mit dem Körperteil Hand im Italienischen und Deutschen. Ein grammatisch semantischer Vergleich. Diplomarbeit. – Innsbruck, 2005; Kempcke G. Struktur und Gebrauch der somatischen Phraseme mit den Bedeutungskomponenten *Kopf* und *tete*. –Strasbourg, 1989. -S. 225-232; Holzinger H.J. Probleme der kontrastiven Phraseologie deutsch-spanisch am Beispiel somatischer Phraseologismen. In: Revista de Filologia Alemana, -1. –Madrid, 1993. - S. 155-167; Pinel Lopez R. M. Ein Vergleich sprachlich modifizierter Phraseologismen in deutschen und spanischen Werbeanzeigen. In: Wotjak G. Studien zum romanisch-deutschen und innerromanischen Sprachvergleich. Akten der III. Internationalen Arbeitstagung zum romanisch-deutschen Sprachvergleich. –Frankfurt am Main/Berlin, Bern, 1997. -S. 213-223; Segura Garsia B. Kontrastive Idiomatik: Deutsch-Spanisch. Eine textuelle Untersuchung von idiomem anhand literarischer Werke und ihrer Übersetzungsprobleme. -Frankfurt am Main/Berlin/Bern, New York/Paris/Wien, 1998; Toledo. E. Vergleichende Phraseologie der spanischen und deutschen Sprache. Untersuchungen, anhand einer Auswahl verbaler Phraseologismen mit der allgemeinen Bedeutung “Angriff auf eine Person”. Bd 62. — Hamburg, 2004; Райхштейн А. Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. –Москва, 1980; Weng J. Der Mensch und sein Körper in deutschen und chinesischen Phraseologismen. In: Iwasaki, Eijiro: Begegnung mit dem Fremden. Grenzen-Traditionen-Vergleiche. Akten des VIII. Internationalen Germanisten –Kongresses. Bd.4. –München, Tokio, 1991. -S. 380-388; Klimaszewska Z. Die Phraseologie auf kulturhistorischem Hintergrund am Beispiel des Deutschen, Niederländischen und Polnischen. In: Iwasaki, Eijiro: Begegnung mit dem Fremden. Grenzen-Traditionen-Vergleiche. Akten des VIII. Internationalen Germanisten – Kongresses. Bd.4. –München, Tokio, 1991. -S.362-369; Braun P., Krallmann D. Inter-Phraseologismen in europäischen Sprachen. –Tübingen, 1990. -S.74-86

¹⁰ Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. Дисс...канд. филол.наук. – Ташкент, 1976. – 196 с; Usmonova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik iboralar. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1998. – 162 б; Назирова Ш.О. Семантическая структура и сочетаемость соматизмов в английском, узбекском и русском языках. Дисс...канд. филол.наук. –Ташкент, 2004. –145 с; Alimova X.Z. Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi: Filol.fan.nomz. diss. – Toshkent, 2005. –139 b. Rashidova U.M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand, 2018.-11 b.; Xomidov X.X. Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma'no va grammatik xususiyatlari. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. B. 50-69; Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018. -11 b.

frazeologizmlar Z.Y. Sadiqov, G.M. Umarjonova¹¹ kabi tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar lingvomadaniy xususiyatlarining chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan ishlar mavjud bo‘lsa-da, ular alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Nofilologik oliy o‘quv yurtlarida chet tilida erkin muloqot qiladigan kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” filologik yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni chog‘ishtirma tahlil qilish va shu asosda ularning antropotsentrik, madaniy, milliy va tarjima qilishdagi muhim xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni morfologik-sintaktik jihatdan tahlil qilish va modellashtirish;

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni muqobillik darajasiga ko‘ra chog‘ishtirma tahlil asosida tasniflash;

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyatlarini tahlil qilish;

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni antropotsentrik aspektda chog‘ishtirma tadqiq etish hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti nemis va o‘zbek tillari leksikografik manbalaridagi somatik frazeologizmlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning leksik, morfologik-sintaktik, tarjima, lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda chog‘ishtirma, kognitiv-semantik, tasnifiy, struktur-grammatik, komponent, lingvomadaniy va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

frazeologizmlarni tuzilishiga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlar va so‘zlarni o‘zaro bog‘lashda ishtrok etuvchi grammatik birliklardan foydalangan holda birikma shaklidagi lisoniy sintaktik qoliplarga modellashtirish hamda nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni morfologik-sintaktik jihatdan ot, sifat, ravish, fe‘l frazeologizmlar kabi turlarga tasniflash orqali ularning nominativ

¹¹ Umarxo‘jayev M. I., Nazarov K.N. Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. –160 b.; Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – 93 b.; Yaxshiyev A.A. Nemis tili og‘zaki nutqi tizimida frazeologik birliklarning semantik-diskursiv maqomi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021. – 79 b.; Sadikov Z.Y. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 65 b. Umarjonova G.M. Nemis va o‘zbek tillaridagi “Hand” “qo‘l” komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2022. – 53 b.

aspektida rod, son, kelishik hamda kommunikativ aspektida zamon, mayl va shaxs-son kategoriyalarini ifodalashi isbotlangan;

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning morfologik-sintaktik va struktur-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali barcha lisoniy sathlarda mos keladigan somatik frazeologizmlar mutlaq, bir xil konnotativ mazmun ifoda etuvchi, biroq leksik va tuzilishiga ko‘ra farqlanadigan somatik frazeologizmlar qisman, barcha muqobillik mezonlarida differensial xususiyatlarni namoyon etadigan hamda madaniy tafovutlarni ko‘rsatadigan somatik frazeologizmlar nolga teng muqobillikka ega ekanligi aniqlangan;

tarjima qilishda muhim hisoblangan intralingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash hamda somatik frazeologizmlarning tarjima imkoniyatiga ko‘ra adekvat tarjima, frazeologik analoglar hamda erkin tasviriy ifodalar bilan tarjima qilish kabi guruhlariga ajratilishi orqali tarjima jarayonida leksik-frazeologik va obrazli-uslubiy xususiyatlarni inobatga olish zarurati isbotlangan;

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar vositasida inson tashqi va ichki obrazlarini go‘zallik, jozibasizlik, bolalik, balog‘at, qarilik, sog‘lik, o‘lim, boyluk, kambag‘allik, takabburlik, nutq faoliyati, oilaviy munosabatlar, do‘stlik, qo‘rquv, g‘azab, qayg‘u, quvonch, ajablanish, halollik, mehmondo‘stlik, hasadgo‘ylik, maqtanchoqlik, tamagirlik, tekinxo‘rlik kabi ideografik guruhlar asosida ochib berish orqali madaniy o‘ziga xos somatik frazeologizmlarning hunarmandchilik, xalq og‘zaki ijodi, kundalik turmush tarzi, xurofiy qarashlar, an‘ana va marosimlar hamda diniy sohalar negizida shakllanganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarni morfologik-sintaktik, leksik va lingvomadaniy aspektlarda qiyosiy o‘rganish leksikologiya va frazeologiya sohalarining chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishga, shuningdek, dissertatsiyada tahlil qilingan materiallar nemis va o‘zbek tillari doirasida frazeografik manbalar – lug‘atlar tuzish hamda nemis va o‘zbek tillari doirasida somatik frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borishda yangi nazariy va ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi;

tadqiqot natijasida “nemischa-o‘zbekcha somatik frazeologizmlar lug‘ati” yaratilgan;

raqamli leksikografik ishlanmalarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, “nemischa-o‘zbekcha somatik frazeologizmlar elektron lug‘ati” ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan metodlarning dissertatsiya nazariy jihatlariga mosligi, tahlilga tortilgan ko‘p sonli frazeologizmlarning nemis va o‘zbek tillaridagi lug‘atlar, ilmiy hamda badiiy adabiyotlardan olinganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi jurnallarda maqolalar nashr qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda nemis va o‘zbek tillaridagi somatik

frazeologizmlar tarjima imkoniyatlari, morfologik-struktur, muqobilligiga ko'ra o'rganilgan, madaniy belgilariga asosan antropotsentrik va milliy-madaniy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot leksikologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik kabi fan sohalari doirasida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda erishilgan natijalardan frazeologiya, leksikologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik kabi fanlar doirasida ma'ruza matnlari, o'quv va metodik qo'llanmalar tayyorlash, frazeografik hamda lingvokulturografik manbalar yaratishda foydalanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar tahlili asosida:

frazeologizmlarni tuzilishiga ko'ra mustaqil so'z turkumlar va so'zlarni o'zaro bog'lashda ishtrok etuvchi grammatik birliklardan foydalangan holda birikma shaklidagi lisoniy sintaktik qoliplarga modellashtirish hamda nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning morfologik-sintaktik jihatdan ot, sifat, ravish, fe'l frazeologizmlar kabi turlarga tasnifiga oid xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi ICM, KA-107 - International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects loyihasi tarjima yo'nalishi bo'limida foydalanilgan (O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining 2021-yil 14-oktabrdagi 02/8-10-son ma'lumotnomasi). Natijada, nemis va o'zbek tillari doirasida somatik frazeologizmlarning tarjima qilinayotgan ifodaga to'liq mos kelishi, boshqa bir frazema bilan almashtirish orqali, qisqartirish yoki to'ldirish, erkin tasviriy ifoda orqali tarjima qilinish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etishi, bu orqali tarjimadagi muammolarning bartaraf etilishi va uning mukammallashishi mumkinligini aniqlashga imkon bergan;

nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning morfologik-sintaktik va struktur-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali barcha lisoniy sathlarda mos keladigan somatik frazeologizmlar mutlaq, bir xil konnotativ mazmun ifoda etuvchi, biroq leksik va tuzilishiga ko'ra farqlanadigan somatik frazeologizmlar qisman, barcha muqobillik mezonlarida differensial xususiyatlarni namoyon etadigan hamda madaniy tafovutlarni ko'rsatadigan somatik frazeologizmlar nolga teng muqobillikka ega ekanligiga oid ilmiy xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi ICM, KA-107- International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbek State University of world languages (Uzbekistan) and Ruhr University Bochum (Germany)- 2020-1-DE01-KA107-005433- loyihasi tarjima yo'nalishi bo'limida foydalanilgan (O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining 2021-yil 14-oktabrdagi 02/8-11-son ma'lumotnomasi). Natijada, turli tizimlarga oid nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning struktural hamda semantik jihatlarini aniqlash va farqlashga erishilgan;

nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning morfologik-sintaktik va struktur-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali barcha lisoniy sathlarda mos keladigan somatik frazeologizmlar mutlaq, bir xil konnotativ mazmun ifoda etuvchi, biroq leksik va tuzilishiga ko'ra farqlanadigan somatik frazeologizmlar

qisman, barcha muqobillik mezonlarida differensial xususiyatlarni namoyon etadigan hamda madaniy tafovutlarni ko'rsatadigan somatik frazeologizmlar nolga teng muqobillikka ega ekanligi tadqiqi bilan bog'liq ilmiy-nazariy tahlillar, xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon" nomli dasturlari ssenariysini (2021-2022-yillar) tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DMning 2022-yil 5-apreldagi 04-36-717-son ma'lumotnomasi). Natijada, nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning antropotsentrik tahlili, ular vositasida nemis va o'zbek lingvomadaniyatida inson tashqi va ichki qiyofasining aks ettirilishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar va xulosalardan foydalangan holda eshittirishlar tayyorlash va efirga uzatish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga amal qilish loyihalarning sifati, mazmuni va samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar vositasida inson tashqi va ichki obrazlarini go'zallik, jozibasizlik, bolalik, balog'at, qarilik, sog'lik, o'lim, boylik, kambag'allik, takabburlik, nutq faoliyati, oilaviy munosabatlar, do'stlik, qo'rquv, g'azab, qayg'u, quvonch, ajablanish, halollik, mehmondo'stlik, hasadgo'ylik, maqtanchoqlik, tamagirlik, tekinxo'rlik kabi ideografik guruhlar asosida ochib berish orqali madaniy o'ziga xos somatik frazeologizmlarning hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi, kundalik turmush tarzi, xurofiy qarashlar, an'ana va marosimlar hamda diniy sohalar negizida shakllanganligiga oid xulosalardan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilayotgan "O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishining masofaviy ta'limning didaktik ta'minoti bo'limida foydalanilgan (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil 14-avgustdagi 04/1-1886-son ma'lumotnomasi). Natijada, xorijiy til, xususan, nemis tilini mukammal o'rganish va kasbiy ta'limni xorijiy tajribalar asosida olib borish jarayonida samarali foydalanish, Oliy ta'lim tizimida zamonaviy AKTlarni qo'llash, masofaviy ta'limni tashkil etishda tadbiiq qilish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruza ko'rinishda 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda (1 tasi Web of Science, SCOPUS) chop etilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida 1 ta elektron va 1 ta bosma lug'at yaratilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, umumiy hajmi 151 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Unda nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni (SF) o'rganish darajasi yoritilgan, ularning barqarorlik xususiyatlari tavsiflangan hamda frazeologizmlar, xususan, SFlarning lingvomadaniyatshunoslikda tadqiqot obyekti sifatida talqin etilishi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Frazeologiyaning tillararo qiyosiy o'rganilishi ilmiy-tarixiy jihatdan yosh tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu yo'nalish 70-yillardan boshlab jadal rivojlanib kelmoqda. Mazkur sohaning rivojlanish jadalligi tadqiqotlarda namoyon bo'ladi. So'nggi yillari frazeologizmlarning tillararo chog'ishtirma tadqiqi uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, tayanch so'zi inson tana a'zolari nomlari bilan ifodalangan frazeologik qatlam bugungi kunda “somatik frazeologizmlar” paradigmasi ostida keng tadqiq etilmoqda, zero tana a'zolari nomlari yuqori darajadagi ifoda samaradorligini ko'rsatadi, ko'p tillarda muqobil variantlari mavjud, bundan tashqari, ular muayyan xususiyatlar bilan bog'langan, jumladan: bosh aql bilan, yurak hissiyotlar bilan, og'iz va til nutq bilan, qo'l amaliy faoliyat bilan.

Chog'ishtirilayotgan nemis va o'zbek tillarida SFlarning bir nechta umumiy jihatlari ko'zga tashlandi. Ularning tarkibiy qismlarini inson tana a'zolari tashkil etishi, ularning barqarorlik xususiyatiga ega ekanligi, ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topganligi shular jumlasidan. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, nemis tilidagi *jmdm. auf der Nase herumtanzen* frazeologizmi so'zma-so'z tarjima etilganda “biror kishining burni ustida raqs tushmoq” mazmunini kasb etadi. Biroq mazkur frazeologizmning “biror kishi boshqa bir kishiga uning soddaligidan foydalanib, nimaiki xohlasa, shuni qilmoq” kabi ko'chma ma'nosi mavjud. O'zbek tilidagi “*beti qalin*”, “*beti yo'q*” frazeologik birliklari esa biror kishining yuz terisi xususiyatlari yoki yuz tuzilishini emas, balki “uyati, or-nomusi yo'q” hamda “gap yuqtirmaydigan, surbet” kabi insonga xos salbiy xususiyatlarni tavsiflaydi.

Nemis tilshunosi V. Flaysher o'zining nemis tili frazeologiyasiga bag'ishlangan asarida frazeologizmlarning idiomatiklik xususiyatini juda muhim omil, deb tushuntiradi. Bunda frazeologik ifoda tarkibidagi har bir komponent va uning umumiy mazmuni o'rtasida semantik bog'liqlik mavjud bo'lmaydi¹². Nemis

¹² W. Fleischer. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen: Niemeyer, 1997. –S.30.

tilidagi *sein Herz schlägt* – “yuragi uryapti” va *aus der Haut fahren* – “toqati toq bo‘lmoq” jumalari mazmun jihatidan turli tuzilishlarga ega. Birinchi jumladagi bir maromdagi munosabatdan farqli o‘laroq, ikkinchi jumlada so‘z komponentlari hamda jumlaning umumiy mazmuni o‘rtasida “nomutanosib” bog‘lanishlar mavjud. Ikkinchi gapdagi “Haut” hamda “fahren” so‘zlarining asl ma’nolari iboraning umumiy mazmunida aks etmaydi. “Ortiq sabr toqati qolmaslik” ma’nosi *aus der Haut fahren* birikmasining umumiy mazmuniga teng. Bu holatda muayyan darajada turg‘unlik xususiyati mavjud. Turg‘unlik sababli – *aus der Haut fahren* birikmasi “turg‘un birikma” yoki “frazeologik birlik” sifatida talqin qilinadi. Nemis tilidagi *jmdm. den Kopf waschen* (aqlini kiritmoq) hamda o‘zbek tilidagi *ikki qo‘lini burniga tiqib qolmoq* SFlari tahlil qilinganda, ular barqarorlik natijasida anglatgan umumiy mazmunni erkin so‘z birikmasi sifatida “so‘zmaso‘z” hamda “muntazam ma‘no” orqali ham tushunish va shunga muvofiq qo‘llash mumkinligi anglashiladi.

SFlarnng idiomatikligini tasdiqlash uchun birikmaning “motivlanganligi” aniqlanadi. O‘z navbatida, motivlanganlikning turli xil bosqichlarini ifoda etuvchi frazeologizmlar ham mavjud¹³.

Birikmaning frazeologik ma’nosi alohida so‘zlarning lug‘aviy ma’nosidan ham tushunarli bo‘lsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri motivlangan frazeologizmlar hisoblanadi (*Dank sagen* – rahmat aytmoq).

Biror bir turg‘un birikmaning frazeologik ma’nosi bir yoki bir nechta tarkibiy komponentning lug‘aviy mazmunidan tushunarli bo‘lsa va ibora tarkibidagi bir yoki bir nechta so‘zning ma’nolari frazeologik mazmunga mos kelmasa, unda bunday SFlarni qisman motivlangan frazeologizmlar deb ataymiz. Barqarorlikning ushbu darajasiga mos keladigan frazeologizmlarni V. Flaysher „qisman barqaror frazeologizmlar“ deb ataydi¹⁴. Misol uchun *Kopf und Kragen riskieren* “boshini tikmoq”, *Haut und Knochen sein* “juda ozib ketmoq; qoq suyak bo‘lmoq” iboralarini olaylik. Bunda *Kopf riskieren*, *Knochen sein* so‘zlarining lug‘aviy ma’nolari iboralarning frazeologik mazmuniga mos keladi, biroq *von Kragen riskieren*, *Haut sein* komponentlari anglatayotgan leksik mazmun frazeologizm mazmuniga yaqin emas. Quyida keltirilgan misollar ham nemis tili uchun xarakterlidir: *Stein und Bein schwören* “ont ichmoq; qasam ichmoq”, *Blut und Wasser schwitzen* – “ona suti og‘ziga keldi”“, *Mund und Nase aufsperrern* – “tomdan tarasha tushganday; to‘satdan sodir bo‘lmoq”, *Augen und Ohren aufhalten* – “„ko‘z-quloq bo‘lmoq; mijja qoqmaslik”“. Qisman barqaror frazeologizmlar o‘zbek tilida nisbatan ko‘proq uchraydi. Masalan: *bosh-qosh bo‘lmoq*. Iboraning *bosh bo‘lmoq* qismi lug‘aviy ma’nosi frazeologik birlikka mos keladi, ammo *qosh bo‘lmoq* qismining mazmuni to‘g‘ri kelmaydi. *Qosh-qovog‘i joyida, tani-joni sog‘* kabi SFlar ham shular jumlasidan.

Agar biror-bir birikmaning frazeologik mazmuni uning tarkibiy komponentlari lug‘aviy ma’nosidan, qachonki, umumiy mazmun tasviriy hamda ko‘chma ma’noda tushunarli bo‘lsa, unda bu yerda metaforik motivlangan

¹³ Burger H., Buhofer A., Sialm A. Handbuch der Phraseologie. –Berlin/New York: de Gruyter, 1982. –S.4

¹⁴ W. Fleischer., Phraseologie der der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen: Niemeyer, 1997. –S.35.

frazeologizmlar haqida soʻz yuritilayotgan boʻladi. Bunga nemis tilidagi *den Nagel auf den Kopf treffen* – “doim haqiqatni soʻzlamok”, *die Beine in die Hand nehmen* – “„oyogʻini qoʻliga olmoq”; “juda tez yugurmoq”, *den Kopf in den Sand stecken* – “biror bir xavfni eʼtirof etishni xohlamaslik, haqiqatdan yuz oʻgirish”, *jmdn. [um] einen Kopf kürzer/kleiner machen* – “oyoq osti qilmoq”, *Haare auf den Zähnen haben* – “qoʻpol, taʼsirchan hamda agressiv harakterga ega boʻlmoq, tili uzun kishi”, *ein Herz aus Stein haben* – “bagʻritosh boʻlmoq” frazeologizmlari va oʻzbek tilidagi *koʻzga ilmoq, ogʻiz-burun oʻpishmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, bitta boshini ikkita qilmoq, bir yostiqa bosh qoʻymoq, boshini qovushtirmoq, boshi bogʻlangan* SFlarni misol keltirishimiz mumkin.

Tilshunoslik sohasida paydo boʻlayotgan lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika kabi yoʻnalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlarda til va madaniyat oʻrtasidagi munosabat inson omili bilan bogʻlab oʻrganiladi. Muloqot vositasi sifatida talqin etilayotgan til, ayni paytda, voqelikni oʻzida aks ettiruvchi vosita hamdir, zero maqollarda, matallarda, frazeologik birliklarda xalqning oʻtmishi, turmush tarzi, urf-odatlarini bilan bogʻliq madaniy belgilar saqlanadi.

Frazeologizmlar madaniy-tarixiy aloqalarni targʻib qiluvchi vositalar sifatida namoyon boʻladi. Ular oʻziga xos madaniy taraqqiyotni, tarixiy oʻzgarishlarni, folklor boʻyoqdorligini oʻzida aks ettiradi va tilga ifoda quvvati, tasviriylik baxsh etadi hamda bu orqali tilning oʻziga xos xususiyatlarini yuzaga keltiradi¹⁵.

Lingvomadaniyatshunoslik muammolariga toʻla yechim topish uchun madaniyat tushunchasini ixchamlashtirish zarur, yaʼni “bu fenomenning koʻp sonli xususiyatlaridan” “lingvomadaniy tahlilda namoyon boʻlishi zarur boʻlgan jihatlari” tanlab olinishi kerak¹⁶. Binobarin, madaniyat olam manzarasining bir qismi sifatida tushuniladi, insonning tabiiy, ijtimoiy va ruhiy borliqda tadrijiy oʻzgarib turadigan shaxsiy hamda jamoaviy munosabatlarda oʻzini anglashini ifodalaydi.

Nemis va oʻzbek tillaridagi koʻpgina SFlar madaniy sohalarga borib taqaladi. Ular shunchaki “oddiy” anatomiyani emas, balki xalqning anʼanalari, uning qadriyatlarini aks ettiradi (masalan, nemis tilida: *sich D. etw. hinter die Ohren schreiben, sich auf die faule Haut legen*, oʻzbek tilida: *bosh omon boʻlsa, doʻppi topiladi, qoʻlini halollamoq* va boshqalar.).

Frazeologizmlarning milliy oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishda “olaning milliy manzarasi” asosiy omil hisoblanadi. U milliy konseptlar jamlanmasi sifatida milliy konseptosferani hamda milliy hamjamiyat tomonidan konseptni standartlashtirish natijasida yuzaga kelgan mental steriotiplarni oʻz ichiga oladi.

Madaniy konnotatsiyaning frazeologik birliklarda mavjud boʻlishi umumeʼtirof etilgan haqiqatdir. Tilshunoslarning taʼkidlashlaricha, til frazeologik tarkibining aksariyat qismi yorqin milliy-madaniy oʻziga xoslikka ega. Oʻzining umumiy funksiyalarini bajarishdan tashqari, frazeologiya tarix, etnografiya,

¹⁵ Foeldes, C. Über die somatischen Phraseologismen der deutschen, russischen und ungarischen Sprache. Versuch einer konfrontativen Analyse. Germanistisches Jahrbuch DDR-UVR. –Budapest,1985. –S.21.

¹⁶ Телия В.Н. Первоочередные задачи, методы и проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры / Телия В.Н. // Фразеология в контексте культуры. –М.: Языки русской культуры, 1999. –С.18.


ijtimoiy munosabatlar, dunyoqarash, milliy ruh, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, e'tiqodlar va milliy madaniyatni tashkil etgan barcha narsalar haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi hamda saqlaydi. Har bitta frazeologizm madaniy belgilarning tashuvchisidir, shundan kelib chiqqan holda frazeologik mazmunning madaniy komponentlari haqida fikr yuritishimiz mumkin.

SFlarni tahlil qilishda lingvomadaniy yondashuv o'zbek va nemis tillaridagi frazeologizmlarning universal jihatlari hamda milliy o'ziga xosliklarini aniq ko'rsatib beradi. Milliy-madaniy o'ziga xosliklarini tahlil qilish uchun nemis va o'zbek tillaridagi SFlarning keng ko'lami aniqlandi va ular mazkur tadqiqot uchun obyekt bo'lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchi bob “Nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning tarjima, strukturaviy va muqobillik xususiyatlari” deb nomlanadi. Ushbu bobda SFlarning morfologik-struktur nuqtayi nazardan universal va differensial jihatlari aniqlangan hamda ularning tarjima va muqobillik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ish doirasida nemis tilidagi 1460 ta va o'zbek tilidagi 1368 ta SF morfologik-sintaktik jihatdan chog'ishtirma tahlil qilindi.


Nemis tilida ot frazeologizmlar sifatida talqin qilingan SFlar sifatlovchi-aniqlovchi+ot (*weiche Knie* – “oyoq-qo'li bo'shshdi; *böse Zungen* – “tili zahar”; *schöne Seele* – “qalbi go'zal”), ot + qaratqich aniqlovchi (*Auge des Gesetzes* – “qonun himoyachisi”; *der Zahn der Zeit* – “yomon xotiralar”), ot + ko'makchi vositasida ifodalangan ot (*ein Dach über dem Kopf* – “boshpana – turar joy; istiqomat qilish uchun yaroqli joy, panoh, maskan”) modellariga ega.



1-rasm. Nemis tilidagi ot SFlarning sintaktik qurilishiga ko'ra taqsimlanishi.

O'zbek tilida esa ot + ot (*bosh og'riq, til qisiqlik, yuz yorug'lik, yurak buruq, jig'ildon ovarasi, kekirdak olmasi*), aniqlovchi+ot (*yolg'iz qo'l, qattiq qo'llik, qora ko'z*), son+ot+ot (*ikki og'iz gap, bir og'iz gap* “qisqa gap”, *ellik og'iz gap* “ko'p gap, ezmachilik”), ot+sifatdosh (*og'iz bog'lar* “to'y qilish haqida qiz tomonning roziligini olish, unashtirish marosimi, fotiha”, *yuz ko'rur* “to'ydan keyingi kun

kelinni tanishtirish uchun o‘tkaziladigan tadbir”), ot+ harakat nomi (*ko‘z tanish, oyoq olish, yurak betlash*) modellariga ega ekanligi aniqlandi.




2-rasm. O‘zbek tilidagi ot SFlarning sintaktik qurilishiga ko‘ra taqsimlanishi.

V. Flaysher o‘z tadqiqotlarida frazeologizmlarni morfologik hamda sintaktik jihatdan tahlil qilib, nemis tilida sifat frazeologizmlar mavjud emasligini ta’kidlaydi. U boshqa tilshunoslar tadqiqotlarida ham sifat frazeologizmlar o‘rganilmaganligiga e’tiborni qaratadi. Sifat frazeologizmlar har doim fe’l so‘z turkumiga oid so‘z bilan bog‘lanadi va fe’l hadli frazeologizm sifatida talqin qilinadi. Tarkibida sifatdosh 1 va sifatdosh 2 mavjud bo‘lgan iboralar ham shular jumlasidandir¹⁷.

O‘rganishlarimiz natijasida yuqorida keltirilgan fikrning to‘g‘riligiga amin bo‘ldik. Quyidagi *zu Herzen gehend* (so‘zma-so‘z tarjiması:yurakka boradigan) SFi “yurakni o‘rtaydigan, juda ta’sirli” konnotativ mazmuniga ega va bir qarashda sifat SF sifatida tushuniladi. V. Flaysher nazariyasiga tayanadigan bo‘lsak, ushbu SF tarkibida sifatdosh 1 mavjud va u gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Shunga qaramay, u fe’l frazeologizmdir.

O‘zbek tilida esa nemis tilidan farqli o‘laroq sifat SFlarning salmog‘i katta. O‘zbek tilidagi sifat SFlar ot+ot (*qoshi kamon, qoshi qalam, qoshi qunduz, qo‘li gul, toshyurak, yuragi daryo, yuragi tosh, chilvirsoch*), ot+sifat (*boshi bog‘liq, jag‘i ochiq, boshi qorong‘u, boshi ochiq, bo‘yni yo‘g‘on, ko‘zi och, ko‘zi ochiq, ko‘zi tirik*), sifat+ot (*yomon ko‘z, qoraqosh, qadoq qo‘l, kuydirgan kalla*), ot+sifatdosh (*betini ko‘rmagan, boshga tushgan*), ot+inkor so‘z (*beti yo‘q, o‘pkasi yo‘q, yuzi yo‘q, yuragi yo‘q*), sifat+sifat (*qattiq qo‘lli, ochiq yuzli*), son+ot (*bir kaft, bir og‘iz, biror og‘iz, ikki og‘iz, ikki-uch og‘iz, to‘rt og‘iz, o‘n og‘iz, uch-to‘rt og‘iz, ellik og‘iz, yuz og‘iz*), ot+son (*qoni bir, tili bir*) kabi modellarga ajratildi.

¹⁷ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen, Niemeyer, 1997. – S. 147.



3-rasm. O‘zbek tilidagi sifat SFlarning sintaktik qurilishiga ko‘ra tasnifi.

Chog‘ishtirilayotgan har ikki tilda ham ravish SFlar ko‘lami keng va ular **nemis tilida** ko‘makchi+ot (*um Haaresbreite* – “qil ustida”, *zu Händen [von]* – “yurakka yaqin”, *zu Fuß* – “yayov, piyoda”), ko‘makchi + sifatlovchi – aniqlovchi bilan qo‘llanilgan ot (*aus dem hohlen Bauch* – “tomdan tarasha tushganday, dabdurustdan”, *hinter vorgehaltener Hand* – “yeng ichida”), ko‘makchi+ot+ko‘makchi (*der Nase nach* – “to‘g‘riga”), ko‘makchi+ot+ ko‘makchi+ot (*von Kopf bis Fuß* – “boshdan oyoq”, *von Mund zu Mund* – “og‘izdan og‘izga”, *mit Schaum vor dem Mund* – “g‘azab bilan”, *vom Wirbel bis zur Zehe* – “boshdan-oyoq”), ot+ko‘makchi+ot (*Arm in Arm* – “qo‘lni qo‘lga berib”, *Hals über Kopf* – “apil-tapil, shoshib-pishib, it quvgan soqovdek”, *Kopf an Kopf* – “tengma-teng”, *Schulter an Schulter* – “yelkama-yelka”), aniqlovchi+qaratqich kelishigidagi ot (*leichten Herzens* – “juda osonlik bilan”, *schweren/blutenden Herzens* – “dili siyoh bo‘lib”, *sehenden Auges* – “ko‘ra-bila turib”, *stehenden Fußes* – “zudlik bilan”), ko‘makchi+ ot+bog‘lovchi+ot (*mit Haut und Haaren* – “boshdan-oyoq”, *mit Leib und Seele* – “tamoman, butunlay”, *mit Zähnen und Klauen* – “tish-tirnog‘i bilan”), ko‘makchi+ ot+qaratqich-aniqlovchi (*unter Anwendung der Ellbogen* – “tirsaklariga tayanib”), sifat+ko‘makchi+ot (*barfuß bis an den/bis zum Hals* – “onadan yangi tug‘ilganday), ko‘makchi+ot+ravish (*Auf die Ellbogen gestützt* – “tirsaklariga tayanib”, *von Herzen gern* – “chin ko‘ngildan”), **o‘zbek tilida** ot+ravishdosh *beli og‘rimay, kiprik qoqmay, yuragini hovuchlab, yurak yutib, tomog‘i taqillab, ichagi uzilguday*), ot+ko‘makchi (*boshi bilan, ko‘z ostidan, burnining tagida*), ot+ot (*boshi ko‘kda, boshi osmonda, quloqdan quloqqa, og‘zi qulog‘ida, oyog‘i osmonda, boshdan oyoq*) aniqlovchi+ot (*sidqi dildan, chin qalbdan*), ot+son (*ko‘zi to‘rt*), ot+sifatdosh (*boshi oqqan, ko‘ngil ko‘taruvchi*), qaratqich aniqlovchi+olmosh (*jonining boricha*).

Nemis va o‘zbek tillarida fe‘l SFlarning salmog‘i baland. Nemis tilida ular to‘plangan jami SFlarning 1343 tasini (91,9%), o‘zbek tilida esa 924 tasini (67,54%) tashkil etadi. Fe‘l SFlarning sintaktik qurilishiga ko‘ra statistik tahlili quyidagi ko‘rinishni oldi:

**Nemis va o‘zbek tillaridagi fe‘l SFlarning sintaktik qurilishiga
ko‘ra statistik tahlili**

Nemis tilida				O‘zbek tilida			
t/r	SFlarning sintaktik tuzilishi	soni	%	t/r	SFlarning sintaktik tuzilishi	soni	%
1.	ot+fe‘l	207	15,41	1.	Ot+fe‘l	499	54
2.	Sifatlovchi aniqlovchi bilan qo‘llanilgan ot+fe‘l	139	10,34	2.	Sifatlovchi aniqlovchi vazifasidagi sifat+ot+fe‘l	29	3,14
3.	Ot+ko‘makchi bilan qo‘llanilgan ot+fe‘l	316	23,52	3.	Ot+ot+fe‘l	171	18,5
4.	Juft so‘z+fe‘l	47	3,49	4.	Juft so‘z+fe‘l	29	3,14
5.	Ko‘makchi bilan qo‘llanilgan ot + fe‘l	458	34,15	5.	Ot+son+fe‘l	31	3,36
6.	Ravish tayanch so‘zli SFlar	61	4,54	6.	ot+bo‘lishsiz shakldagi fe‘l	55	5,95
7.	Ikkita fe‘l ishtirok etgan SFlar	86	6,40	7.	Nominal element+ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi	43	4,66
8.	Sifatdosh + fe‘l	29	2,15	8.	Nominal element+ravish+fe‘l	67	7,25

Nemis va o‘zbek tillarida tuzilishiga ko‘ra gapga teng bo‘lgan SFlar aniqlandi. Nemis tilida: *die Augen sind größer als der Magen, die Kirche hat einen großen/guten Magen, die linke Hand kommt vom Herzen, die Wände haben Ohren* – o‘zbek tilida: *tili bir qarich bo‘ldi, o‘takasi o‘nga bo‘lindi, yuragi orqasiga tortib ketdi, beli og‘rimaganning non yeyishiga boq.*

Frazeologizmlarni tillararo taqqoslashda muqobillik tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ikki yoki undan ortiq tillar o‘rtasidagi taqqoslash munosabatlarida muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Umumiy jihatdan olib qaralganda, muqobillik ikkita turli tillarga tegishli ikki shakl yoki ikki zanjir bo‘lib, ularning kontrastiv til tizimida o‘xshash ifodalarning mavjudligidir. Chog‘ishtirma frazeografiya borasidagi so‘nggi tadqiqotlarga asoslanib, nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik, struktur-semantik va struktur-sintaktik jihatdan o‘zaro mosligini quyidagi muqobillik darajalariga tasniflash mumkin: 1) mutlaq muqobillik; 2) qisman muqobillik; 3) nolga teng muqobillik.

Nemis va o‘zbek tillarida barcha muqobillik mezonlarida mos hamda leksik, morfologik-sintaktik jihatdan bir xil frazeologizmlar (*das Herz bleibt stehen – yuragi to‘xtab qolmoq*. Har ikkala frazeologizm ham *ot + fe‘l* strukturasi ega; *die Nase hoch tragen – burnini baland ko‘tarmoq* “kekkaymoq, dimog‘dor bo‘lmoq”. Har ikki ibora ham quyidagi strukturaga ega: *Tushum kelishigidagi ot + sifat + fe‘l*), bir xil mazmun, bir xil obraz va o‘xshash sintaktik tuzilishga ega frazeologizmlar (*von Kopf bis Fuß – boshdan oyoq*. Deyarli bir xil sintaktik tuzilma. Nemis tilida: *ko‘makchili ot + ko‘makchili ot*, o‘zbek tilida: *chiqish kelishigidagi ot + ot*), bir xil mazmun, o‘xshash tasviriy ifoda, o‘xshash tuzilmaga ega SFlar (*jmdn. auf Händen tragen – kimnidir kaftda ko‘tarmoq*. Sintaktik

tuzilishi o‘xshash. Nemis tilida: *tushum kelishigidagi gumon olmoshi + predlog bilan qo‘llanilgan jo‘nalish kelishigidagi ot + fe‘l*, o‘zbek tilida: *tushum kelishigidagi gumon olmoshi + o‘rin-payt kelishigidagi ot+ fe‘l*) **mutlaq muqobil** – bir xil mazmun, o‘xshash tasviriy ifoda va turli xil strukturalarga ega bo‘lgan SFlar (*sich auf eigene FüÙe stellen – oyoqqa turmoq*. Strukturasi har xil. Nemis tilida: *ko‘makchi bilan kelgan tushum kelishigidagi ot + o‘zlik nisbatidagi fe‘l*, o‘zbek tilida: *jo‘nalish kelishigidagi ot + fe‘l*), bir xil mazmun, o‘xshash tasviriy ifodaga ega, biroq leksik va tuzilishiga ko‘ra farqlari bo‘lgan somatik frazeologizmlar (*sich die Beine vertreten – oyog‘ini (chigilini) yozmoq*. Leksik tarkibiga ko‘ra farqlar. Nemis tilidagi “vertreten” (qo‘zg‘atmoq) fe‘li o‘rnida o‘zbek tilida boshqa bir fe‘l “yozmoq” qo‘llangan. Sintaktik tuzilishiga ko‘ra farqlar. Nemis tilida: *tushum kelishigidagi ot + o‘zlik nisbatidagi fe‘l*, o‘zbek tilida: *uchinchi shaxs birlik egalik qo‘shimchasini olgan tushum kelishigidagi ot + fe‘l*;) bir xil mazmunga ega, lekin leksik, sintaktik tuzilish hamda tasviriy ifoda jihatidan farq qiladigan SFlar (*Augen haben wie ein Luchs – lochin (burgut, qirg‘iy) ko‘z*) **qisman muqobil**, ya‘ni barcha jabhalarda, jumladan, leksik, struktur hamda lisoniy tasviriy ifodasiga ko‘ra farq qiladigan SFlar (*schwach auf der Brust sein – qo‘li kalta*. Tuzilishiga ko‘ra farqlar. Nemis tilida: *sifat+ko‘makchi bilan qo‘llanilgan ot+fe‘l*, o‘zbek tilida: *uchinchi shaxs birlik egalik qo‘shimchasini olgan ot+sifat*), boshqa bir tilda muqobil frazeologik yoki leksik variantlari mavjud bo‘lmagan hamda milliy o‘ziga xos hamda madaniy tafovutlarni ko‘rsatadigan SFlar (nemis tilida: *Streit um des Kaisers Bart, sich um den Kaisers Bart streiten* – “yo‘q (arzimagan) narsaga tortishmoq”; o‘zbek tilida: *yelkasi chopon ko‘rmagan, oshig‘i olchi bo‘lmoq, hudo tirnoqdan qismoq, tili kalimaga kelmaslik*) **bolga teng muqobil** sifatida talqin etildi.

Dissertatsiyada SFlarning tarjimada mavjud imkoniyatlariga e‘tibor qaratildi va ularning bir tildan boshqa tilga asl hamda ko‘chma ma‘nolari tarjimasidagi o‘ziga xosliklar maxsus o‘rganildi. Frazeologizmlarning tarjimasida muhim omil hisoblangan ularning sintaktik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari asosiy mezon sifatida talqin etilgan ichki va tillararo o‘xshashlik yoki farqlarni izlab topishni o‘z ichiga olgan – umumiy yoki turli xil an‘analar hamda qadriyatlar, shuningdek, madaniy va iqtisodiy munosabatlarga ega bo‘lgan geografik hududlarni tavsif etuvchi tashqi omillar ham inobatga olinishi lozim.

Nemis va o‘zbek tillaridagi SFlarni tillararo taqqoslash ularni mavjud bo‘lgan tarjimaning quyidagi turlariga tasniflab tahlil qilish imkonini berdi: 1) adekvat tarjima. Bunda boshqa tillarda ham asliyadagi frazeologizmlarning mavjud bo‘lishi va u tarjima qilinayotgan ifodaga to‘liq mos kelishi zarur (*kimningdir boshini aylantirmoq – jmdm. den Kopf verdrehen* – “es-hushini olib qo‘ymoq, maftun qilmoq; yo‘ldan ozdirmoq, avramoq, aldamoq”); 2) frazeologik analoglar yordamida tarjima qilish. Bunda asliyadagi frazemani boshqa frazema bilan almashtirish orqali tarjimada bir xil ma‘noga ega bo‘lgan, lekin tarjima qilinayotgan ifodaga to‘la mos kelmaydigan muqobil variant tanlanadi. Bunda mos kelmaydigan qismlar boshqa frazemalar bilan almashtiriladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi *ko‘ngli aynimoq* nemis tilidagi tarjima qilinayotgan ushbu *dreht sich der Magen um* frazeologizmiga mos kelmaydi. Bu SFlardagi leksik farq

sifatida shuni ko'rsatishimiz mumkinki, nemis tilidagi "der Magen" (oshqozon) ot so'z turkumiga oid so'z o'zbek tilidagi "ko'ngil" so'zi bilan almashtirilgan. Shunga qaramay, har ikki tilda ham frazeologizm anglatayotgan ma'nobir xil: "organizm qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq; yoqtirmaslik". Agar leksik iboralar ma'no jihatidan juda yaqin va bir xil mazmun doirasiga tegishli bo'lsa, unda frazeologizmlarni qisqartirish yoki to'ldirish orqali tarjima qilish mumkin. Misol tariqasida *boshini tikmoq – Kopf und Kragen riskieren* iborasini tahlil ko'rib chiqaylik. Bu holatda nemis tilida "Kragen" so'zi orttirilgan, biroq har ikki holatda ham ibora anglatgan konnotativ mazmun bir xil. Nemis va o'zbek tillaridagi (*kulaverib*) *ichagi uzilmoq – da bleibt kein Auge trocken* "bu yerda quruq ko'z qolmadi" SFlarida konnotativ mazmun turli obrazlar vositasida ifodalangan. O'zbek tilida juda ko'p kulish ma'nosi "ichak" orqali mujassamlashtirilgan bo'lsa, nemis tilida bu "ko'zlarga yosh kelishi" orqali aks ettirilgan. O'zbek tilidagi "*olma pish, og'zimga tush*", *deb o'tirmoq* iborasining aniq tarjimasini imkonsiz. Biroq nemis tilida ushbu iboraning mazmuniga *warten, daß einem die gebratenen Tauben in den Mund fliegen* (tarjimasini: qovurilgan kabutar uchib kelib og'izga kirishini kutmoq) frazeologik birligi teng bo'lsa-da, u boshqa obrazlar vositasida ifodalangan; 3) erkin tasviriyl ifoda orqali tarjima qilish. Frazeologizmlarni goho na adekvat va na frazeologik analoglar yordamida tarjima qilish imkoni topiladi. Bunday holatda tarjima erkin tasviriyl ifodalar orqali aks ettiriladi. Masalan, nemis tilidagi *sich um den Kaisers Bart streiten* (tarjimasini: imperatorning soqoli uchun janjallashmoq) somatik frazeologizmini "arzimagan narsaga tortishmoq" deb o'g'irish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda [*wie*] *im Abrahams Schoß* SFni ham misol tariqasida keltirish mumkin. Frazeologizm shakllanishi "Boy odam va Lazar" hikoyasidagi Lazarning Ibrohim payg'ambarning huzuriga olib borilishi voqeasi bilan bog'liq. Shu bois iborani adekvat tarjima, analoglar yordamida yohud kalkalash usuli bilan tarjima qilish imkonsiz. SFni "ishonchli, bexavotir, xavfsiz joyda" ko'rinishida tarjima qilish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning antropotsentrik va milliy-madaniy tadqiqi**" deb nomlangan. Mazkur bob SFlarning insonning tashqi va ichki qiyofasini (obrazini) aks ettirishdagi o'ziga xosliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlarga aloqador bilim tuzilmalarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Bobning birinchi faslida nemis va o'zbek tillaridagi SFlar vositasida inson tashqi olamining aks etishi yoritilgan.

Nemis lingvomadaniyatida *ein Gesicht wie Milch und Blut haben* (tarjimasini: sut va qon kabi yuzi bor bo'lmoq), *wie Milch und Blut sein* (tarjimasini: sut va qon kabi bo'lmoq), *aussehen wie Milch und Blut* (tarjimasini: sut va qon kabi ko'rinmoq) SFlari o'zbek tilidagi "yuzidan qon tomadi" somatik frazeologizmiga muqobil va ayol **go'zalligini** ifodalab keladi. O'zbek xalqida ayol yuzining go'zalligini tasvirlashda ko'z va qoshga alohida e'tibor qaratiladi, zero *ko'zlari xumor (xumor ko'z), charos ko'z, qora qosh, qoshi kamon, qoshi qalam, qoshi qunduz* iboralari ham yuz go'zalligini tavsiflaydi. Ijobiy estetik baho vizual idrok bilan bog'liq bo'lgan hamda shaxsning ruhiyl holatini ifodalaydigan ijobiy hissiyl baholashga asoslanadi. Nemis tilidagi *auf jmdn. etw. ein Auge geworfen haben* – "ko'ziga

yaxshi ko‘rinmoq”, *die Augen auf sich ziehen* – “o‘ziga qaratmoq, boshqalarning e‘tiborini jalb elmoq”, *jmdn, etw. mit den Augen verschlingen* – “yeb qo‘ygudek bo‘lib qaramoq, tikilib (suqlanib) qaramoq”, *jmdn. des Augenlichtes berauben* – “ko‘zini qamashtirmoq” frazeologizmlari hamda o‘zbek tilidagi *ko‘zni oladi, ko‘zni qamashtirmoq, ko‘zini o‘ynatmoq, ko‘ziga o‘tday ko‘rinmoq* SFlari shular jumlasidandir. O‘zbek madaniyatida kishining qalbi go‘zal bo‘lsa, uning yuzi ham go‘zal bo‘lishini, qalbdagi go‘zallik qiyofada aks etishini bildiruvchi *yuzidan nur yog‘iladi (taraladi)* SFi mavjud. Annemarie Shimmelning “Jonon mening jonimda” asarining Yo‘ldosh Parda tomonidan qilingan tarjimasida quyidagi jumla uchraydi: *Rivoyat qilishlaricha, Misrda Yusuf alayhissalomni kimoshdi savdosiga qo‘yishganlarida, atrofda hozir bo‘lganlar yuzlaridan nur taralib turgan bu go‘zal mahbus yigitni qul qilib sotib olish uchun juda ko‘p pul taklif etishgan*¹⁸. Shuningdek, asarda chiroyli bo‘lmashlik yuzdan nur yog‘ilmasligi bilan bog‘lab tavsiflangan:

Chiroyimni yo‘qotdim men
 Yuzimdan nur yog‘ilmaydi.
 Qalbni azob dudi bosgan
 Yuzga ko‘chdi uning zahri.¹⁹

Nemis tilida **jozibasizlik** *das Gesicht (yuz)* leksemasi ishtirok etgan somatik frazeologizmlar orqali ifodalanadi (*ein Gesichtseimer sein, eine Gesichtsbaracke sein, ein Gesicht wie ein Pfannkuchen haben* “juda xunuk odam, badbashara”). O‘zbek tilida esa xunuklik *yuz* so‘zining sinonimlari orqali talqin etiladi (*turqi sovuq, afti sovuq*). O‘zbek tilidagi *kuydirgan kalladay* frazeologizmi yoqimsiz hamda xunuk iljaygan, tirjaygan shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Yoshga oid xususiyatlarni ifodalovchi frazeosemantik guruhni “bolalik”, “yoshlik”, “voyaga yetish” hamda “qarilik” kabi kichik guruhlarga ajratishimiz mumkin. Nemis va o‘zbek tillarida organizmning ulg‘ayishi bilan ifodalanadigan **balog‘at** davri *mo‘ylov* leksemasi tayanch so‘z sifatida ishtirok etgan SFlar vositasida tavsiflanadi. O‘zbek tilidagi *mo‘ylovi sabza urgan* va nemis tilidagi *ein Milchbart sein* “mo‘ylovi sabza urmoq” SFlari bunga misol bo‘la oladi. O‘zbek tilida ulg‘ayish qomatning balandligini bildiruvchi *bo‘y* leksemasi ishtirok etgan frazeologizm orqali talqin etiladi. *Bo‘yiga yetmoq* frazeologizmi qad-qomati yetilib, balog‘atga yetgan yigit va qizlarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek lingvomadaniyatida mavjud bo‘lgan *boshi tuynukdan chiqib ketayotgani yo‘q* iborasi ham bo‘yi yetgan qizlarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq tilimizda *boshingga yosti qilasanmi?! somatik frazeologizmi ham borki, bo‘yi yetib vaqtida uzatilmayotgan qiz haqida aytiladi. Qarilik* konsepti o‘zbek lingvomadaniyatida soqolning oqligi bilan ifodalanadi (*sochiga yoki soqoliga oq oralagan*). Nemis tilida ham, o‘zbek tilida ham juda ham qarib munkillab qolgan – o‘limi juda ham yaqin bo‘lgan yosh toifasini ifodalovchi SFlar mavjud. Nemis tilidagi *mit einem Bein im Grabe stehen, mit einem Fuß im Grabe stehen* – “bir oyog‘i go‘rda bo‘lmoq”, *auf den letzten Füßen gehen* – “qarib, munkillab qolgan” SFlari va

¹⁸ Shimmel A. Jonon mening jonimda. Olmon tilidan Yo‘ldosh Parda tarjimasida. –Toshkent: Sharq, 1999. – B.81.

¹⁹ O‘sha asar. – B.159

o‘zbek tilidagi *bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda* iborasi mazmunan umumiylik kasb etadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida **sovqotish** hissini anglatadigan quyidagi SFlarni qayd etishimiz mumkin. *Yelkasini qismoq* iborasi sovuq yegani bois bo‘ynini ichiga tortish, qunishish mazmunida qo‘llaniladi. *Badanidan o‘tib ketmoq* frazeologizmi esa sovuqning inson jismining ich-ichiga chuqurroq kirib borishini ifodalaydi. Shu bilan birga, *suyak-suyakka o‘tib ketmoq* hamda *jon-jonidan o‘tib ketmoq* SFlari ham shu mazmunda qo‘llanilishi mumkin. Nemis lingvomadaniyatida esa sovqotish hissi *die Zähne* (tishlar) va *Bein* (oyoq) orqali aks ettiriladi (*jmdm. die Zähne klappern vor etw.* – “zir titramoq”, *Stein und Bein frieren* – “qo‘l-oyog‘i muzlab qolmoq, sovuqdan qotib qolmoq”).

O‘zbek lingvomadaniyatida **sog‘lik** muhim ahamiyat kasb etadi va u boshqa moddiy unsurlardan ustun qo‘yiladi. O‘zbek tilida sog‘lik mazmunini kasb etgan SFlarda ko‘z, bosh, oyoq somatik leksik vositalari tayanch so‘z sifatida qatnashadi. O‘zbek tilida kishining yotgan holati kasallikni (*boshi yostiqa yetmoq, oyoqdan qolmoq*), uning tik turgan holati esa sog‘ligini ifodalaydi (*oyoqqa turmoq, bosh ko‘tarmoq, yostiqdanda bosh ko‘tarmoq*). O‘zbek lingvomadaniyatida *to‘rt ko‘z tugal* iborasi barchaning eson-omon va sog‘-salomat ekanligini ifodalaydi. Shu bilan birga, tilimizdagi *to‘rt muchasi sog‘* iborasidagi *mucha* so‘zi kishi tana a‘zosi ma‘nosiga ega. Mazkur frazeologizm kishining oyoq, qo‘l, ko‘z va quloqlarining sog‘lomligini bildiradi²⁰. Nemis tilidagi *nicht mehr auf die Beine kommen können* – “oyoqdan qolmoq”, *schwach auf die Beinen sein* – “oyog‘ida zo‘rg‘a turmoq” iboralari kasallikni, *wieder auf die Beine kommen, wieder auf den Beinen sein* – “oyoqqa turmoq” biror bir kasalmand kishining sog‘ayib ketishini ifodalaydi.

O‘lim tushunchasi o‘zbek lingvomadaniyatida ko‘z holati orqali konseptlashadi. O‘zbek tilidagi *dunyodan ko‘z yummoq, ko‘z yummoq* SFlari vafot etmoq mazmuniga ega. Nemis tilida ham o‘zbek tilidagi kabi o‘lim tushunchasi ko‘zlar vositasida namayon bo‘ladi (*die Augen auf null stellen/ drehen* – “jon bermoq”; *die Augen schließen/ zumachen/ zutun* – “ko‘z yummoq”; *jmdm. Augen brechen* – “ko‘z yummoq”). Shuningdek, o‘zbek tilida o‘lim oyoqlarning holati orqali ham ifodalanishi mumkin (*oyoq uzatmoq*).

Nemis tilidagi *jmdn, auf den Händen tragen* “kaftida ko‘tarmoq” frazeologizmi biror kishiga bo‘lgan **hurmatni** ifoda etadi. Juda ham izzat-hurmat qilish hamda kishining hurmatini bajo keltirish tilimizda biror bir insonni boshida yoki kaftida ko‘tarish obrazida aks ettiriladi. *Kaftda ko‘tarmoq* frazeologik birligi ham o‘zgalarga nisbatan e‘zoz-ikrom bilan munosabatda bo‘lish, uni juda hurmat qilish mazmuniga ega.

Ushbu bobning ikkinchi fasli nemis va o‘zbek tillaridagi inson ichki olamining SFlar vositasida aks ettirilishi chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan.

Inson ichki olamining aks etishida madaniyatning somatik kodlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki inson tanasining parametrlari qadim zamonlardan beri borliqning asosiy mezonlari bo‘lib kelgan. Insonning ichki dunyosi inson tanasi

²⁰ Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80.000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II. O‘zR FA Til va adabiyot instituti. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – B. 657

qobig'ida joylashgan bo'lib, unda fikrlar, his-tuyg'ular va emotsiyalar mavjud bo'ladi, ulardan eng muhimi esa yurakdir²¹.

A.Gelyayeva olamning lisoniy manzarasida inson tasviri mavzusiga bag'ishlangan asarida shunday ta'kidlaydi: "Insonning tashqi qiyofasi (obrazi) dan farqli o'laroq, uning ichki olamini bevosita kuzatish imkoni mavjud emas, shu sababli insonning ideal hayoti o'ziga xos tadqiqot obyekti hisoblanadi"²².

Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham **qo'rquv** tushunchasini ifodalashda *yurak* (*das Herz*) tana a'zosining samaradorligi yuqori. Har ikki tildagi SFlar insonning qo'rqan paytidagi umumiy holati qiyofasi (obrazi) negizida shakllangan. Nemis va o'zbek tillarida o'ziga xos milliy kodga ega bo'lgan frazeologizmlar aniqlandi. Nemis tilidagi juda qattiq qo'rqish ma'nosida qo'llanuvchi *die Hande iber dem Kopf zusammenschlagen*²³, *jumladam, stehen die Haare zu Berge* iboralarining kelib chiqishi nemis xalqining diniy qarashlariga borib taqaladi. O'zbek tilidagi *tili kalimaga kelmay qoldi* iborasida ham musulmonlikka iqror bo'lish uchun aytiladigan diniy iborani ifodalovchi *kalima* so'zi ishtirok etgan.

Nemis tilida **g'azab** mazmunini ifodalovchi SFlarni o'rganish natijasida ularning miqdori ko'p ekanligi aniqlandi, zero emotsiyalarning tildagi ifodasi – jestlar, mimikalar va gavda holati orqali amalga oshadi. Nemis tilida bu tuyg'u *Bauch* (qorin), *Auge* (ko'z), *Nerv* (nerv), *Niere* (buyrak), *Blut* (qon), *Galle* (o't qopi), *Gesicht* (yuz), *Haar* (soch), *Hals* (bo'yin), *Kopf* (bosh), *Mund* (og'iz) tana a'zolari orqali ifoda etiladi. Tilimizda g'azab emotsiyasi asosan *ko'z* va *soch* tana a'zolari vositasida talqin etiladi (*ko'zi chanog'idan chiqib ketayozdi, ko'zlari kosasidan chiqib ketayozdi, ko'zlari chanog'idan chiqar bo'ldi, qorachig'i qinidan chiqib ketgudek, sochi tikka bo'ldi, tepa sochi tikka bo'ldi*). Qonning fiziologik holatini ifoda etuvchi *qoni qaynadi* SFi ham g'azabni aks ettiradi.

Nomus juda og'riqli hisoblangan tuyg'udir. Unga bardosh berish va uni yashirish qiyin. Nemis tilida uyalish mazmunini kasb etadigan SFlar kishining quloqqacha qizarib ketishi (*bis hinter die Ohren rot werden, mit roten Ohren abziehen* – "yuzi shuvut bo'lmoq, sholg'omday qizarmoq"), biror kishining yuziga qaray olmaslik yoki nigohlarining yerga qaratilganligi (*jmdm. nicht ins Gesicht sehen konnen* – "ko'ziga qaray olmaslik", *die Augen niederschlagen* – "ko'zini olib qochmoq") tasviri orqali aks ettiriladi. Yuqorida uyalish tuyg'usiga xos bo'lgan fiziologik holatda tana a'zolarining qizarishini ta'kidlab o'tdik. Qon kabi qizarib ketish esa haddan ziyod uyalishni ifoda etadi. Nemis tilidagi *wie mit Blut iberگossen dastehen* – "uyatdan yerga kirmoq, yuzi qizarmoq" juda qattiq uyalish mazmuniga ega. Ma'lumki, haddan ziyod ta'sir qilish suyakkacha yetib borish orqali ham tavsiflanadi. Mazkur *sich bis auf die Knochen blamieren* – "uyatdan yerga kirmoq, yer yorilmadi-yerga kirib ketmadi" SFida ham kishining juda qattiq izza bo'lishi suyagigacha yetib borishi orqali talqin etilgan. O'zbek tilida esa uyat-nomusga qolgan kishining holati uning boshi pastga egilishi (*boshi bukildi, boshini bukmoq, boshini yerga bukmoq, boshini quyi egmoq, boshini xam qilmoq*), yuzni

²¹ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М., 2002. –С.236.

²² Геляева А.И.Человек в языковой картине мира. –Нальчик, 2002. – С. 90.

²³ Ein Christliche Leichpredigt ..., Der Dritte Theil. Электрон pecyrc. <https://www.logo-buch.de/logo-aktiv/wissensbibliothek/christliches-lexikon>. Murojaat sanasi: 17.06.2021

tik ko'tara olmaydigan holatga tushishi (*yuzi yerga qaradi*), yuz rangining qora tusga kirishi (*yuzi qora*) orqali ifodalanadi. O'zbek tilidagi *yzini yerga qaratmoq*, *yzini shuvut qilmoq* SFlari biror-bir kishini uyatli holatda qoldirish ma'nosiga ega.

Insonichki dunyosining ajralmas qismlaridan biri uning **xislatlari** va xarakter xususiyatlaridir. Har ikki tildagi **jasorat** (**nem.:** *Dem Tod in die Augen schauen* (*dem Tod ins Auge sehen* – “o'limning ko'ziga tik boqmoq”; **o'zb.:** *o'limga tik boqadigan*), **mardlik** (**nem.:** *den Nacken steif halten* – “yelkasi yer iskamagan”; **o'zb.:** *yelkasi (kuragi) yerga tegmagan, yelkasi yer iskamagan, ko'kragida yoli bor*), **mehmondo'stlik** (**nem.:** *jmdn. mit offenen Armen aufnehmen/ empfangen* – “husni qabul aylamoq”; **o'zb.:** *quchoq ochib kutib olmoq*), **saxiylik** (**nem.:** *eine milde Hand haben* – “qo'li ochiq bo'lmoq”, *eine offene Hand haben* – “qo'li ochiq bo'lmoq”, *mit vollen Händen geben* – “qo'li keng bo'lmoq”; **o'zb.:** *ko'ngli keng, ko'ngil keng bo'lsa, qo'li ochiq yoki ochiq qo'l*), **halollik** (**nem.:** *Eine ehrliche Haut sein* – “vijdoni toza, halol bo'lmoq”, *reine/saubere Hände haben* – “halol, pok bo'lmoq”; **o'zb.:** *bosh ko'tarib yurmoq*) kabi xislatlar ijobiy xususiyatlar sifatida, shuningdek, **hasadgo'ylik** (**nem.:** *eine schwarze Seele haben* – “ko'ngli qora bo'lmoq”; **o'zb.:** *dili qora, ichi qora, ichi qoralik*), **laganbardorlik** (**nem.:** *Brei um den Mund schmieren* – “tilyog'lamalik qilmoq”, *Hönig um den Bart schmieren* – “laganbardorlik qilmoq”, *nach dem Mund[e] reden* – “hamma gapini ma'qullamoq, tilyog'lamalik qilmoq”; **o'zb.:** *yetti bukilmoq*), **tamagirlik** (**nem.:** *eine hohle Hand machen* – “poraxo'rlik qilmoq”, *die Hände schmieren/versilbern* – “og'zini moylamoq” frazeologizmi “pora berish”, **o'zb.:** *og'zini (tomog'ini) moylamoq*) kabi xususiyatlar esa salbiy shaxsiy fazilatlar sifatida o'rganildi.

Nemis va o'zbek tillarida muqobil variantlariga ega bo'lmagan, tillararo taqqoslashda ko'p tomonlama madaniy tafovutlarni yuzaga keltiradigan bir qator madaniy o'ziga xosliklarga ega somatik frazeologizmlar borligi tadqiqotimiz natijasida ko'zga tashlandi va tahlil etildi. Har bir xalq o'z obrazi hamda obrazli iboralarini o'ziga tanish bo'lgan hodisalar va hayot sohalaridan, jumladan, tabiat elementlaridan, hayvonot va nabotat olamidan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning an'anaviy shakllaridan va eng asosiysi, insonlarning kundalik hayotdagi faoliyatlaridan oladi²⁴.

Seine Haut zu Markte tragen – “jonini o'rtaga qo'ymoq” iborasi nemis xalqining qadimiy hayot tarzi negizida shakllangan. Publiy Korneliy Tatsit o'zining nemis qabilalarining kelib chiqishi, etnografiyasi va hayot tarziga bag'ishlangan “Germaniya” nomli asarida hayvon terilarining jarimalarni to'lashda to'lov vositasida qabul qilinganligi haqida ma'lumot bergan. Shu bois iborada kishining o'z terisi ramziy ma'noda uning so'nggi boyligini va uni sotish orqali o'z hayotini tahlikaga qo'yishni ifoda etadi.²⁵ *Misol: Dann hat das Volk die Sache ausgefochten und seine Haut zu Markte getragen* (*Th.Mann, Buddenbrooks 134*). – “Shundan so'ng xalq bu narsaga qarshi kurashdi va jonini o'rtaga qo'ydi” (*tarjima muallifga tegishli. Keyingi o'rinlarda: X.N.tarzida beriladi*).

²⁴ Seiler, F: Deutsche Sprichwörterkunde. -München, 1967. -S. 290.

²⁵ Publius C.T. (Autor), Richard H. (Editor), Eugen F. (Übersetzer). Germania. –Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1959. –S-35.

Die Haut über die Ohren ziehen – “go‘sxo‘r qilmoq, firib bermoq” frazeologik birligi hunarmandchilik sohasiga oiddir. Ibora paydo bo‘lishida mo‘ynaga ishlov berish jarayoni, aniqroq tushuntirilsa, mo‘ynado‘zlar tomonidan ovlangan hayvonning terisini boshi orqali shilib olishlari jarayoni asos bo‘lgan. Frazeologizm “biror-bir kishiga zarar berish, uni aldash yoki chuv tushirish” mazmunini anglatadi.

Kaiser atamasi nemis tilida 1871–1918 yillari avloddan avlodga o‘tadigan unvonni anglatadi. Etimologik jihatdan bu so‘zning shakllanishi Rim imperiyasining imperatori Gay Yuliy Sezar nomiga borib taqaladi. Tadqiqotlarimiz natijasida mazkur termin ishtirok etgan SFlar uchradi, zero har bir xalqning tarixi uning frazeologik fondida o‘z aksini topadi. Arzimagan narsa uchun tortishmoq mazmunini kasb etadigan *Streit um des Kaisers Bart, sich um den Kaisers Bart streiten* – “yo‘q (arzimagan) narsaga tortishmoq” SFlari qadimda Rim imperatori Yuliy Sezar va Buyuk Karl soqol qo‘ygan yoki qo‘ymaganligi borasidagi asossiz tortishuvlar natijasida paydo bo‘lgan. Misol keltiramiz: *Die beiden streiten sich mal wieder um des Kaisers Bart*²⁶. – Ikkisi arzimagan narsa uchun tortishib o‘tiribdi (X.N.).

Nemis xalqining kundalik turmush tarzini ifoda etuvchi frazeologizmlar ham uchradi. Jumladan: *Die linke Hand/ die Linke kommt vom Herzen* (tarjimasi: chap qo‘l yurakdan keladi) o‘ng qo‘lni harakatlantira olmaganda chap qo‘lni uzatishi mumkin va aynan mana shu holatda qo‘llaniladigan maxsus – hazilomuz frazeologizmdir. Misol: *Der verletzte Soldat gab die linke Hand beim Begrüßen und sagte: “Die linke Hand kommt vom Herzen”*²⁷. – Yaralangan askar salomlashishda chap qo‘lni uzatdi va dedi: “„Yurak chap tomonda uradi” (X.N.).

Man reicht den kleinen Finger, und er nimmt die ganze Hand; Wenn man ihm den kleinen Finger reicht, nimmt/ will er gleich die ganze Hand – “Gadoga choriq bersang, yamoqligini ham tilar” frazeologizmlaridagi metaforik tasvirning shakllanishi 1541 yilga borib taqaladi. SF o‘zgalarning yaxshiligidan, ularning oq ko‘ngilligidan foydalanadigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladi va ular shaytonga qiyoslanadi²⁸.

Nemis tilidagi *Gott auf [den] Knien danken können, dass...* – “Yaratganga shukur qilmoq, shukronalik keltirmoq” frazeologik birligi xristian dinida cherkovda tiz cho‘kkan holda turish obrazidan kelib chiqqan va yaratganga shukronalik keltirish mazmuniga ega. *Du kannst Gott auf Knien danken, dass nichts Schlimmeres passiert ist*²⁹. – “Hech qanday yomon narsa sodir bo‘lmaganligi uchun sen Yaratganga shukur qilishing lozim” (X.N.).

Kelib chiqishi xristian dinining muqaddas kitobiga borib taqaladigan [*wie*] *im Abrahams Schoß* “ishonchli, bexavotir, xavfsiz joyda” frazeologik birligi

²⁶ Duden-Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik (Duden in 12 Bänden, Bd. 11).– Berlin: Dudenverlag, 2013. –S.92

²⁷ Wörterbuch für Redensarten, Redewendungen, idiomatische Ausdrücke, Sprichwörter, Umgangssprache. Elektron resurs: <https://www.redensarten-index.de>.

²⁸ Franck S. Sprichwörter, Schöne, Weise, Herrliche Klugreden und Hoffsprüch. – Franckenfurt am Meyn: Egenolff, 1541. –S. 103.

²⁹ Duden-Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik (Duden in 12 Bänden, Bd. 11). – Berlin: Dudenverlag, 2013. –S. 414.

xavfsizlik va saodat kafolati mazmuniga egadir. SFning paydo bo'lishiga esa "Boy odam va Lazar" masalidagi Lazarning Ibrohim payg'ambarning huzuriga olib borilishi voqeasi bilan bog'liq. *Bei mir bist du sicher wie im Abrahams Schoß* (Degener, *Heimsuchung* 87). –*Sen menikida ishonchli va bexavotir joydasan* (X. N.).

Hayvonlar ramziy xususiyatlarining insonga ko'chirilishi uning kishilar hayotidagi roliga bog'liq va bu ma'lum bir geografik makon doirasida yuzaga keladi. Masalan, nemis tilidagi *Augen haben wie ein Luchs, Ohren wie ein Luchs haben* "juda ziyrak, sezgir" frazeologik birligi chuqur va qalin o'rmonda yashaydigan (misol uchun, Schwarzwald – Qora o'rmon) mahalliy aholi uchun xosdir. Ma'lumki, Germaniya o'rmonlarga boy va nemis qabilalari qadimdan o'rmonli hududlarda yashaganlar. Shu bois, juda ziyrak kishilar silovsinga (*Luchs*) qiyos qilinadi.

O'zbek tiliga taqqoslar ekanmiz, tilimizda ko'zi o'tkir kishilarga nisbatan "kalxat ko'z", "burgut ko'z", "qirg'iy ko'z" frazeologizmlari qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Etalonlarning turlicha bo'lishida nemis va o'zbek xalqining yashash sharoitlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, o'zbek xalqi o'z tarixi davomida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan va bu xalq yashagan hududlarda qirg'iy, burgut, kalxat kabi qushlar ko'p uchraydi. Shu sababli mazkur qush nomlari frazemalar tarkibiga kirgan va konnotativ mazmun kasb etgan.

Turkiy xalqlarning, asosan, O'rta Osiyo mamlakatlarining milliy taomi bo'lgan *osh* leksemasi ishtirok etgan SFlar tilimizda mavjud. O'zbek tilidagi *og'zi oshga yetganda* frazemasi biror-bir kishining mehnatlari evaziga uzoq vaqt davomida erishgan muvaffaqiyati rohatini ko'ray deganida, biror ko'ngilsizlik, omadsizlik yuz berishini bildiradi. Shu bilan birga, *og'zidagi oshni oldirmoq* frazeologizmini ham keltirish mumkin.

Kam ishlatilsa-da, tilimizda aslo gapirmaydigan, suhbat davomida sukut saqlab turadigan kishilarga nisbatan *og'zida qatiq ivitmoq* frazeologik birligi qo'llaniladi. Iboraning shakllanishida qatiqning ivitish jarayoni asos bo'lgan, deyish mumkin, chunki bunda sutga ivitqi (oqliq) solingandan keyin kamida 4-5 soat idishning og'zi yopilgan holda tindirib qo'yiladi.

Yelkasi chopon ko'rmagan frazeologik birligi ham ko'chma ma'noda iqtisodiy imkoniyatlari past bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Urf-odatlarimizga ko'ra hurmat namunasi sifatida, yoki quda-anda bo'lganda to'y marosimlarida kishining yelkasiga to'n yopish odati mavjud. Shu bois, mazkur frazeologizm izzat-hurmat ko'rmaslik mazmunida ham qo'llanilishi mumkin. *Teri to'nini ters kiyib olmoq* (*choponini teskari kiymoq, to'nini teskari kiymoq*) SFlari biror kishiga qasdlashib o'jarlik qilish mazmuniga ega.

O'zbek madaniyatida belbog' o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Belbog' o'zbek uchun nomusga, orga egalikni ifodalaydi. *Belida belbog'i bor* frazeologizmi ishonsa bo'ladigan, orli, nomusli, mard yigitlarga nisbatan, *belingda belbog'ing bormi?* iborasi esa "yigitlik g'ururing bormi?" mazmunida qo'llaniladi.

Tadqiqot davomida o'zbek frazeologik fondida an'ana va marosimlarni tavsiflaydigan somatik frazeologimlar aniqlandi. *Boshini bog'lamoq* iborasi yigit

yoki qizni unashtirib qo'yish mazmuniga ega, *og'iz bog'lar* frazemasi esa to'y qilish haqida qiz tomonning roziligini olish uchun o'tkaziladigan unashtirish marosimini ifoda etadi. Shu bilan bir qatorda bolalik chog'laridayoq unashtirib qo'yish ma'nosiga ega *quloq tishlash* (*qulog'ini tishlab qo'ygan*), nikohning ertasi kuni ko'rmana bilan kelin ko'rish marosimini ifodalovchi *yuz ko'rar*, oilada kim bosh bo'lishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan an'anani ifoda etuvchi *oyoq bosish* kabi SFlar ham shular jumlasidan.

Shu o'rinda o'zbek tilida diniy mazmunga ega SFlar miqdori ham ko'pligini ta'kidlash mumkin. *Qo'lini halollamoq* frazeologizmi o'g'il bolani sunnat qilishni ifoda etadi. Ushbu odat barcha musulmon xalqlarida mavjud. Bola sunnat qilingandan so'ng uning qo'li halol bo'ladi va u musulmon sanaladi. Misol keltiramiz: *Buning ustiga o'zlarining maktab yoshiga yetgan uch nafar o'g'illarining qo'lini halollash kerak. Barot ishlasa, yonimga kirsas, uncha katta bo'lmasa ham chog'liqqina to'y qilib beraman, deb mo'ljallagandi*³⁰.

Kalima so'zi musulmonlikka iqror bo'lish uchun aytiladigan iborani ifoda etadi. *Tili kalimaga kelmaslik* frazeologik birligi kalimani keltira, ayta olmaslikni bildiradi. SFning tashqi ta'sir (qo'rquv, hayrat va shu kabilar) natijasida gapirolmay qolish ko'chma mazmuni ham bor. Misol: *Otangizning ham tillari burro edi. Lekin moddasini moddasiga to'g'irlab qo'yganimda, tili kalimaga kelmay qolgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy [O'TIL. 2-jild; 298-b.].*

Quloq qoqmoq namoz o'qishda niyat qilgandan so'ng bosh barmoqlarini quloqlarning pastki qismiga tekkizishni aks ettiradi. Shuningdek, o'zbek tilidagi ro'za tutmagan kishini ifodalovchi *og'zi ochiq*, ro'za tutgan kishini tavsif etadigan *og'zi yopiq*, shom paytida biror narsa iste'mol qilish orqali ro'zasini ochishni bildiradigan *og'iz ochmoq*, taqdirga tan berish mazmunida qo'llaniladigan *peshanamdan ko'rdim*, ehson qilish ma'nosiga ega *bosh-ko'zingdan sadaqa* SFlari ham xalqimizning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida olib borilgan tahlillar va erishilgan natijalarga asoslanib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Nemis va o'zbek tillarida SFlarning motivlanganlik darajasi aniqlandi va ular to'g'ridan to'g'ri, qisman va metaforik motivlangan SFlar kabi guruhlarga tasniflab o'rganildi. Leksik o'rin almashish imkoniyatlariga ko'ra tahlillar natijasi ko'rsatdiki, bu holat ot, sifat va fe'l so'z turkumlari doirasida yuz berishi mumkin.

2. Frazeologizmlarni tarjima qilishda ularning lingvistik va ekstralingvistik omillari ham inobatga olinishi lozim. Nemis va o'zbek tillarida o'xshash, tarjima qilinayotgan iboraga to'liq mos keladigan, bir xil ma'noga ega, lekin tarjima qilinayotgan ifodaga to'la mos kelmaydigan hamda erkin tasviriy ifoda orqali tarjima qilish mumkin bo'lgan SFlar aniqlandi.

3. SFlar ot, fe'l, sifat hamda ravish so'z turkumlari o'rnida qo'llanilishi mumkin va grammatik kategoriyalarga ega: "ot" va "sifat" so'z turkumlariga oid rod, son va kelishik kategoriyalari hamda "fe'l" so'z turkumiga tegishli zamon,

³⁰ Siddiqov Yu. Tokchadan topilgan xazina. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 143.

mayl va shaxs-son kategoriyalari shular jumlasidan. Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, tahlilga tortilgan SFlar ot, sifat, ravish, fe'l va tuzilishiga ko'ra gapga teng SFlarga tasniflandi, har bir kategoriya tarkibidagi SFlar sintaktik qurilishiga ko'ra modellashtirildi. Nemis tilida sifat SFlar aniqlanmadi. Har ikki tilda ham fe'l frazeologizmlar soni ko'pligi ma'lum bo'ldi.

4. Universal va differensial aspektlarini aniqlash maqsadida SFlar muqobilligiga ko'ra tahlil qilindi. Barcha muqobillik mezonlarida bir xil, leksik, morfologik-sintaktik jihatdan universal tuzilmaga ega 153 (10,47%) SFlar mutlaq muqobil, bir xil mazmun, o'xshash tasviriy ifoda va turli xil strukturaga ega 488 ta (33,10%) SFlar qisman muqobil, bir-biriga yaqin konnotativ mazmunga ega, lekin leksik, sintaktik hamda obraz jihatidan farqli, qiyoslanayotgan tilda muqobilligi mavjud bo'lmagan 819 ta (56,1%) SFlar nolga teng muqobilikka ega frazeologizmlar sifatida talqin etildi.

5. Nemis va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalashda denotativ aspekt muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur SFlar tarkibidagi xalqning o'tmishi, turmush sharoitlari, e'tiqodi, urf-odatlar, an'analari, inonchlari, tarixiy va diniy-mifologik nomlar, geografik nomlar, milliy kiyim-kechak nomlari, milliy taom nomlari, milliy musiqa asboblari nomlarini aks ettirgan denotatlar milliy ma'lumotni saqlovchi hisoblanadi. Biroq milliy-madaniy konnotatsiya SFlarning umumiy mazmunida yoki bilvosita, ya'ni etalon yohud stereotiplar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi ma'lum bo'ldi.

6. Nemis va o'zbek lingvomadaniyatida tashqi insonning tashqi qiyofasi (obrazi)ni ifoda etadigan, antropotsentrik mazmunga ega SFlar semantik guruhlariga tasniflab o'rganildi, o'xshash va farqli, madaniy va xalqchil jihatlari yoritildi. Tashqi inson tasviri talqini doirasida kishining tashqi ko'rinishi, fiziologik xususiyatlari, faoliyati, nutqiy xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyi, o'zga shaxslar bilan hamda oilaviy munosabatlarini ifoda etadigan SFlar chog'ishtirma tahlil qilindi. Insonning his-tuyg'ulari, ijobiy va salbiy xususiyatlarini tavsiflaydigan SFlar inson ichki olami in'ikosini ifodalaydigan frazeologizmlar sifatida keltirildi.

7. Nemis va o'zbek tillari juftligida yaratilgan frazeografik manbalar soni kamligi inobatga olinib, tadqiqotimiz davomida erishilgan natijalar va egallangan bilimlar natijasida nemischa-o'zbekcha somatik frazeologizmlar lug'atining bosma va raqamli-elektron shakllari yaratildi. Mazkur lug'at boshqa turdagi nemischa-o'zbekcha frazeologik lug'atlarni yaratishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

НУРУЛЛАЕВ ХАСАН ТУХТАЕВИЧ

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НЕМЕЦКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером № В2020.4.PhD/Fil992.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Холияров Лутфулла Ташкуватович**
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Садиков Зоҳид Яқубжанович**
доктор филологических наук (DSc), доцент
Аноркулов Санжар Искандарович
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 году в «__» часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, 21а. Тел.: (99871) 230-12-91; Факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за №__). (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, 21а. Тел.: (99871) 230-12-91; Факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.
(Протокол реестра рассылки № __ от «__» _____ 2023 года).

Г.Х. Бакиева

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Х.Б. Самигова

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

Ж.А. Якубов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании под термином “соматические фразеологизмы” (СФ) исследуются фразеологизмы, содержащие названия частей человеческого тела, поскольку именно они непосредственно связаны с человеком и его культурой. СФ обычно служат для выражения культурной и национальной специфики, а также различных действий людей, воплощая в себе традиционную символику вербального общения, национальные, широко распространенные обычаи, обряды, традиции, ритуалы. Вышесказанное обуславливает актуальность выбранной темы исследования, поскольку сегодня, когда межкультурная коммуникация стремительно развивается, возникает необходимость выявления культурологических признаков языковых единиц, в частности, фразеологических единиц.

В мировой лингвистике увеличивается количество научных работ, посвящённых изучению СФ в сопоставительном аспекте. В данных исследованиях особое внимание уделяется семантико-структурному, национально-культурному, антропоцентрическому и концептуальному анализу фразеологизмов, поскольку фразеологизмы отражают такие особенности каждого народа, как традиции, образ жизни, религиозные верования, история в экспрессивной и образно-эмоциональной форме.

В нашей стране уделяется большое внимание повышению авторитета узбекского языка, воспитанию подрастающего поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям, обеспечению полноценного внедрения государственного языка, сохранению и развитию языков наций и народностей, проживающих в Узбекистане, созданию условий для изучения узбекского языка в качестве государственного языка, определению стратегических целей, приоритетных направлений, задач и перспективных этапов развития. При этом определены задачи по созданию компьютерной программы, осуществляющей перевод с узбекского языка на ведущие иностранные языки мира и с иностранных языков на узбекский, повышению роли и престижа государственного языка на международной арене, развитию зарубежного сотрудничества в этой области¹. В связи с этим актуальным является изучение фразеологизмов в немецком и узбекском языках, их изучение в лексическом, семантическом, морфолого-синтаксическом аспектах и их семантико-тематической классификации, проведение анализа соматических фразеологических единиц в лингвокультурном плане.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии

¹ О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране № УП-6084 20.10.2020

действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»², УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”³, УП-6084 от 20 октября 2020 года “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране”⁴, ПП-5117 от 19 мая 2021 года “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан”⁵, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 312 от 19 мая 2021 года “О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков”⁶ и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

Степень изученности проблемы. Фразеологические единицы длительное время являются объектом исследования в мировой лингвистике. В этом отношении большое значение имеют изыскания в области фразеологии таких ученых, как Х.Виссеман, Л.Рёрих, А.Роткегел, У.Фикс, К.Даниелс, К.Пильц, В.Флайшер, И.И.Чернышева, Х.Бургер, К.Пальм, Н.Н.Амосова, А.В.Кунин⁷.

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 07.02.2017 г. № УП-4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” // Сборник правовых документов Республики Узбекистан. – Ташкент, 2017, № 6, ст. 70.

³ Указ Президента Республики Узбекистан, от 08.10.2019 г. № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” // Национальная база правовых документов, 09.10.2019, № 06/19/5847/3887; 30.04.2020, № 06/20/5987/0521.

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан, от 20.10.2020 г. № УП-6084 “ О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране” // Национальная база правовых документов, 21.10.2020, № 06/20/6084/1398.

⁵ Постановление Президента Республики Узбекистан, от 19.05.2021 г. № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” // Национальная база правовых документов, 20.05.2021, № 07/21/5117/0472.

⁶ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 19.05.2021 г. № 312 “О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков” // Национальная база правовых документов, 20.05.2021, № 09/21/312/0483.

⁷ Wissemann H. Das Wortgrupplexem und seine lexikographische Erfassung. In: indogermanische Forschungen 66. -H.3. 1961. – S. 225-258; Rothkegel A. Feste Syntagmen. Grundlagen, Strukturbeschreibung und automatische Analyse. - Tübingen, 1973; Fix U. Zum Verhältnis von Syntax und Semantik im Wortgrupplexem. In: Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur. - Halle, 1974; Daniels K. Neue Aspekte zum Thema Phraseologie in der gegenwärtigen Sprachforschung. In: Muttersprache 86/1976. - S.257-293, 89/1979. -S.71-96, 93/1983 -S.142-170, 95-1984-1985. -S.49-68. -S.151-173; Pilz K. Phraseologie. Redensartenforschung. - Stuttgart. 1981; Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. - Leipzig, 1982, 2. Aufl. – Tuebingen, 1997; Cernyseva I.I. Strukturtypologische Phraseologieforschung in der sowjetischen Germanistik (Überblick und Ausblick). In: Europhras 88. –Strasbourg: Universite des Sciences Humaines, 1989. –S. 43-49; Burger H., Buhofer A., Sialm A. Handbuch der Phraseologie. Berlin, New York, 1982; Palm C. Phraseologie. Eine Einführung. Zweite Auflage. - Tübingen, 1997; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – С. 140-161; Амосова Н.Н. Основы английской

История изучения узбекской фразеологии связана с исследованиями таких ученых, как Е.Д.Поливанов, Ш.У.Рахматуллаев, Я.Д.Пинхасов, А.Ш.Шомаксудов, М.Хусаинов, А.М.Бушуй, М.Э.Умархужаев, Б.Йулдошев, А.Э.Маматов⁸.

В мировом языкознании осуществлено сравнительное исследование СФ в работах таких ученых, как Ф.Вакк, К.Фаро, К.Лунд, К.Гиттерл, Г.Кемпке, Х.Ж.Хольцингер, Р.М.Пинел Лопес, Сегура Гарсия, Э.Толедо, А.Д.Рейхштейн, Ж.Венг, З.Климасзвеска, П.Браун и Д.Кралман⁹.

СФ в родственных и неродственных языках изучены такими лингвистами, как А.Исаев, Ш.Р.Усмонова, Ш.О.Назирова, Х.З.Алимова, У.М.Рашидова, Х.Х.Хомидов¹⁰, а в немецком и узбекском языках это

фразеологии. - Ленинград, 1963; Кунин А.В. Английская фразеология: теоретический курс. - М.: Высшая школа, 1970.

⁸ Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедов. - Москва: Издательство Юрайт, 2019. -233 с.; Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. -М.: 1952. -16 с.; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана. Автореф. дис. канд. филол. наук. - Ташкент, 1953. -19 с.; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология). Автореф. дис. канд. филол. наук. - Ташкент, 1956. -18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Автореф. дис. канд. филол. наук. -Самарканд, 1959. -18 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. -Самарканд: СамГУ, 1976. -Вып. IV. -300 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. -Самарканд: СамГУ, 1979. -Вып. V. -245 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель по фразеологии: Основные вопросы теории фразеологии. -Самарканд: СамГУ, 1987. -Вып. 6. -236 с.; Ш.Рахматуллаев. Ўзбек тилининг фразеологик луғати - Тошкент, 1992; Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеологии. - Ташкент, 1977. - 103 с.; Умархўжаев М. Чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик муаммолари. -АДПУ, 2014; Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. Фил.ф.док...дис.: 10.02.02. Ўзб.ФА Тилшунослик институти, - Т., 1991, - Б. 270; Маматов А.Э. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. - Тошкент, 2018, - Б.100; Маматов А. Э. Фразеологик бирликларнинг семантик- тематик ва услубий таҳлили. - Т.: «Наврўз» нашриёти, 2020, -Б. 136; Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDUnashri, 2007. -108 b.

